

ELLIPSISNING KO'PVAZIFALILIGI

Sulaymonova Gulbahor Aliturayevna*Yangiyo'l shahar 1-son politexnikumi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida leksik-semantik nuqtayi nazardan yangi so'zlar paydo bo'lishining lisoniy omillaridan biri bo'lmish ellipsisni o'rganish maqsad qilib qo'yilgan. Nutqda ellipsis turli maqsadlar bilan yuz beradi. Ellipsis natijasida uslubiy figura yuzaga keladi. Elliptik so'zlar lisoniy va nutqiy xarakterga ega ekanligi bilan farqlanadi. Ellipsis ham makromatnda, ham mikromatnda tejamkorlik qonuni asosida nutqning ixchamligi, qisqaligini ta'minlovchi lisoniy omillardan biri sifatida hosil bo'ladi.

Kalit so'zlar: ellipsis, betaraf elliptik so'zlar, nutqiy elliptik so'zlar, mikromatn, makromatn.

O'zbek tilidagi so'zlarni ko'pvazifalilik nuqtayi nazaridan o'rganish, ularni shu jihatdan baholash inson nutqini yuzaga keltiruvchi til birliklarining ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida, har xil sintaktik qurshovda, xilma-xil uslubiy maqsadlarda qo'llanganda boshqa-boshqa mazmunga, vazifaga xoslanib qolishi, morfosintaktik sath bilan lug'aviy-sintaktik so'z va so'z shakllariga xos nominativ, konnotativ, kommunikativ vazifalarning uyg'unlashuvi, dialektik aloqadorligini aniqlashga, bu esa, o'z navbatida, o'zbek tili so'zlari milliy tabiatining yanada chuqur yoritilishiga olib keladi. O'zbek tilidagi u yoki bu birlik nutqning turli ko'rinishlari uchun o'ziga xos tarzda, ma'lum maqsadni ko'zda tutib, unga qandaydir bir aniq vazifani yuklab turib tanlanadi. Demak, o'sha o'rinda, masalan, so'z (ot, fe'l, sifat...) ham grammatik, ham nominativ, ham konnotativ... kabi ma'nolarni ifodalaydi, turli xil vazifa bajaradi. Jumladan, ot turkumiga oid **terak** so'zi nominativ vazifadan tashqari, grammatik vazifa, pragmatik vazifa va yana boshqa vazifalarni bajarishi mumkin: Sen «**terakka**» aytib qo'ygin, ikkinchi bu yoqlarga qadam bosmasin. («Sharq yulduzi» jurnali) Bu gapdagi qo'shtirnoqqa olingan **terakka** so'zi ko'chma ma'noda (metafora, ellipsis) qo'llangan holda «novcha, oriqlik shaxs»ni ifodalash bilan birga, unga nisbatan shaxsning munosabatini ham, so'zning u yoki bu uslubga xoslanganligini ham, yana boshqa ma'no va vazifalarni ham bajaryapti.

Tildagi har bir birlik ana shunday imkoniyatlarga egadir. So'zlardagi bu xususiyatlar, imkoniyatlar cheksizdir. Masalan, qovoq somsa, tandir kabob, tunuka tom, qozon kabob kabi birikuvlardagi qovoq, tandir, tunuka, qozon kabi aniqlovchilar, hammaga ma'lumki, sifatdoshli, hatto, ravishdoshli + sifatdoshli qurilmalar qisqarishi (ellipsis) natijasida keyinchalik bir ot so'z orqali ifodalangan:

qovoq solib pishirilgan somsa → qovoq somsa kabi. Bunda **qovoq** soʻzi (ot) solib pishirilgan yarim predikatli qurilmadagi keyingi qismlar bajargan vazifalarni ham oʻz zimmasiga olgan. Ot turkumi tadqiqiga bagʻishlangan ishlarda esa bu turkum soʻzlarning koʻp maʼnoliligi toʻgʻrisida yoʻl-yoʻlakay fikr yuritilsa ham, polifunksionallik haqida maxsus tadqiqot ishi olib borilmagan. Holbuki, polisemantiklik bilan koʻpvazifalilik yondosh hodisalar hisoblansa-da, nutq birligi, nutqiy figura, nutqiy kategoriya sifatida ular oʻrtasida ancha-muncha farq bor.

Ellipsis termini aslida grekcha (yunoncha) elleipsis soʻzidan hosil boʻlib, «tushirish; kamchilik, nuqson» maʼnolarini anglatadi. Oʻzbek tilshunosligida leksik-semantik nuqtayi nazardan yangi soʻzlar paydo boʻlishining lisoniy omillaridan biri ellipsisdir. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻatida ellipsis terminiga berilgan taʼrifga eʼtibor beramiz: «Nutq unsurining tushib qolishi. Nutqda ellipsis turli maqsadlar bilan yuz beradi. Undan odatda uslubiy figura sifatida foydalaniladi». Demak, ellipsis natijasida uslubiy figura yuzaga keladi. Bunday hodisa, ayniqsa, «aniqlovchi-aniqlanmish» qolipli birikmalarda aniqlanmish komponentining tushirib qoldirilishi tufayli roʻy beradi. Oqibatda aniqlovchi komponent birikmada ifodalangan maʼnoni yakka oʻzi ham ifodalay oladi. Bundan ellipsis faqat sintaktik hodisa emas, balki leksik hodisa ham ekanligi maʼlum boʻladi. Chunki ellipsis natijasida birikma tarkibidagi aniqlovchi komponent yangi maʼnosida qoʻllana boshlaydi. Boshqacharoq qilib aytganda, otdan iborat aniqlanmish komponent oʻzining borligini «yoʻqotadi», uning maʼnosi sifatdan iborat aniqlovchi komponentga «oʻtib» qoladi, yaʼni ot turkumidagi soʻzning maʼnosi sifat turkumidagi soʻzning maʼnosiga yuklatiladi.

Elliptik soʻzlar lisoniy va nutqiy xarakterga ega ekanligi bilan farqlanadi. Shunga qarab, elliptik soʻzlarning koʻpvazifaliligi haqida soʻz yuritish mumkin.

1. **Betaraf elliptik soʻzlar.** Oʻzbek tilining qonun-qoidolari asosida tashkil topgan birikmalardan aniqlanmish komponentini tushirib qoldirib, umumiy maʼnoni aniqlovchi komponentga «yuklash» natijasida qoʻllab kelinayotgan lugʻaviy birliklardan foydalanish odatiy holat edi. Keyinchalik analogiya asosida har qanday barqaror birikmalarning aniqlanmish komponentini tushirib qoldirish assotsiatsiyasiga binoan aniqlovchi komponent mustaqil maʼnoni anglatadigan soʻzga aylanib qoladi. Shu asosda yuzaga kelgan elliptik soʻzlar jumlasiga quyidagilarni misol tariqasida keltiramiz: oʻquvchi [bola, odam...] – maktab (litsey, kollej...) oʻquvchisi; oʻyinchi [raqqos, raqqosa...] «Tanlovda Dildora ismli **oʻyinch**i qiz birinchi oʻringa loyiq deb topildi», – deb eʼlon qilindi. (Uygʻun) Shoʻx yigitlar **oʻyinchiga** xushomad qilar, qiyqirishar edi. (P. Tursun) **Qiziqchi** [bola, odam, ayol...] Oʻtmishdagi sanʼatkorlar ichida **qiziqchilar** alohida oʻrin egallab kelganlar. (T. Obidov) **Aʼlochi** soʻzining ot sifatida qoʻllanishi ham aslida shu holat bilan bogʻliq: aʼlochi oʻquvchilar - aʼlochilar kabi.

Umuman olganda, har qanday shaxs nomini anglatuvchi soʻzlarning faraziy

shaxs ekanligini ifodalovchi aniqlanmish komponentlar tushirib qoldirilganda, ularning aniqlovchi komponenti yangi ma'noli so'z sifatida qo'llana boshlaydi. Shu asosda yuzaga kelgan so'zlar o'zbek tili leksikasida muhim o'rinni egallaydi. **O'rgatuvchi, ashulachi, doirachi, donishmand, savdogar, haydovchi, yuguruvchi** kabi yuzlab so'zlar ayni faraziy asosda yuzaga kelgan. Chunki bunday so'zlarning har birida shaxslarni ifodalovchi **kishi, odam, bola, ayol** singari ko'plab tagma'noli so'zlar, ya'ni aniqlanmishlar mavjudligini e'tiborga olish lozim. Keltirilgan dalillardan birikmalarning ellipsisi natijasida shaxslarning nomlarini ifodalab kelayotgan so'zlar uslubiy jihatdan betaraf, ya'ni neytral tarzda qo'llanilayotganligi ko'rindi. Ko'chimning ayni shu turi ham, avvalo, o'z ma'nolari (sifat – aniqlovchi vazifalari)da, ikkinchidan, ot turkumi vazifasida ishlatilayotganligi, ya'ni ikki holatda ham denotativ xususiyatga ega ekanligi ularning ko'pvazifaliligini tasdiqlaydi. Muhimi, ellipsisning mazkur turi ot turkumining yangi-yangi so'zlar hisobiga boyib turishini ta'minlovchi lisoniy hodisalardan biri bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi.

2. Nutqiy elliptik so'zlar. Tilning amaliyot shakli, voqelanishi; so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shunday jarayon natijasida yuzaga keladigan hodisa bo'lmish nutqda ellipsis o'zining yorqin ifodasini topadi. Bunday xulosaga kelishning sababi shundaki, amalda har qanday sifat va sifatdoshlr ishtirokidagi birikmalarda ular ellipsis natijasida ot vazifasini bajarib kela oladi. Shu taxlitdagi elliptik so'zlar, odatda, lug'atlarda aks ettirilmaydi. Bunday sifat va sifatdoshlarning otlashuvida ko'pincha **-lar** ko'plik qo'shimchasidan foydalaniladi. Misollar keltiramiz: **Ketadiganlar** hozirligini ko'raversin. Insho **yozayotganlarga** qulay sharoit yaratildi. Bizdan **kulganlar** kulaversin, ishimiz yo'q. **Chaqqonlar** davraga chiqsin va hokazo.

O'zbek tilida ellipsidan keng foydalaniladigan bir muhim manbaning mavjudligi diqqatga sazovordir. Bu asrlar davomida xalq tomonidan yaratilgan va yaratib kelinayotgan maqollardir. Purma'no xalq maqollari og'zaki nutqda tez-tez qo'llab turilgani tufayli vaqtlar o'tishi bilan silliqdashib, ixchamlashib keldi. Bunda, ayniqsa, ellipsis muhim lisoniy omil sifatida o'ziga xos ahamiyat kasb etgan. Bunga quyidagi misollarni keltiramiz:

Yaxshiga yondash, **yomondan** qoch. **Yaxshi** bilan yursang, yetarsan murodga, **yomon** bilan yursang, qolarsan uyatga. Sabr qilsang, g'o'radan holva bitar, **besabrlar** o'z oyog'idan yitar. **Ko'r ko'rni** qorong'ida topadi. **Yosh** kelsa - ishga, **qari** kelsa - oshga. **Ko'pdan** quyon qochib qutulmas va boshqalar.

Xullas, ellipsis ham makromatnda, ham mikromatnda tejamkorlik qonuni asosida nutqning ixchamligi, qisqaligini ta'minlovchi, asosan, denotativ ma'nolarni anglatuvchi lisoniy omillardan biridir.